

Toshkent sh.

2 Fevral 2022

"UNICON-SOFT" MCHJ nomidan direktor XABIBULLAYEV SHERZOD XAYRULLA O'G'Lli, Ustav asosida faoliyat ko'rsatuvchi, bundan keyin Operator deb ataluvchi bir tomonidan va "NAVBAHOR DAVLAT O'RMON ISHLAB CHIQARISH KORXONASI nomidan XOJIYEV A'ZAM AMONOVICH, Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi bundan keyin Abonent deb ataluvchi, ikkinchi tomonidan, birqalikda Tomonlar deb ataluvchilar, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Ijrō intizomi yagona idoralararo elektron tizimi, IJRO.GOV.UZ (bundan keyin - Tizim) - bu Operator tomonidan ishlab chiqilgan va unga tegishli bo'lgan, davlat organlarida elektron hujjat aylanishi va ijro intizomining nazoratini amalga oshirish uchun mo'ljallangan maxsus dasturiy kompleks.

Abonent - Operator bilan Tizimdan foydalanib Elektron hujjat aylanishi va ijro intizomini nazorat qilish xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

Foydalanuvchi - o'z lavozim majburiyatları sababli Tizimning oxirgi foydalanuvchisi hisoblanadigan, Abonent xodimi bo'lgan (yoki unga tenglashtirilgan shaxs) jismoni shaxs.

Tizim moduli - Abonentga qo'shimcha imkoniyatlarni beruvchi va Tizimning asosiy funksionali hamda vazifasiga ta'sir ko'rsatmaydigan Tizimning qismi. Moduldan foydalanish Abonent uchun ixtiyoriy hisoblanadi.

Shaxsiy kabinet - Abonentga Foydalanuvchilarni qo'shish/chiqarib tashlash orqali ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlardan foydalanish, shuningdek statistika ma'lumotlarini ko'rib chiqish va Foydalanuvchilarning faolligi to'g'risidagi hisobotlarni shakllantirish imkonini beradigan Tizimning bo'limi.

Elektron raqamli imzo (bundan keyin - ERI) - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini ERI yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda ERI ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va ERI yopiq kalitining egasini identifikasiya qilish imkoniyatini beradigan imzo;

Hisobot oyi - xizmatlar ko'rsatiladigan kalendar oyi.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha Operator Abonentga Tizimdan (SaaS modeli bo'yicha) elektron hujjat aylanishi va ijro intizomini nazorat qilish xizmatlari (bundan keyin - «Xizmatlar»)ni ko'rsatadi.

1.2. Tizimning huquqiy egasi hisoblangan Operator Tizimga egalik qilish, undan foydalanish va uni boshqarishni, shu jumladan Tizimning to'liq texnik ishlashini ta'minlash, kuzatishni va Tizimdan foydalanish qoidalarini belgilashni amalga oshiradi.

1.3. IJRO.GOV.UZ manzili bo'yicha joylashgan Tizimdan foydalanish qoidalari ushbu Shartnoma bilan uzviy bog'langan va bajarilishi majburiy bo'lgan hujjat hisoblanadi.

2. XIZMATLAR NARXI VA HISOB-KITOBLAR TARTIBI

2.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha (Abonent xodimi) uchun Abonent to'lovi bir oyda QQSsiz 40,475.00 (qirq ming to'rt yuz yetmish besh) so'mni tashkil qiladi.

2.2. 2022 yilning 12 oyi (Yanvar-Dekabr) davri uchun 3 ta foydalanuvchilarga abonent to'lovining umumiy narxi QQSsiz 1,457,100 (bir million to'rt yuz ellik yetti ming bir yuz) so'mni tashkil qiladi.

2.3. Abonent ushbü Shartnoma kuchga kirgan paytdan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida Operatorning hisob raqamiga Shartnoma narxining 30 foizi miqdoridagi pul mablag'larini o'tkazish orqali Operator Xizmatlari narxining dastlabki to'lovini amalga oshiradi. Shartnoma narxining 70 foizi miqdoridagi qolgan summasini Abonent hisobot oyidan keyin keladigan oyning 10-sanasidan kechiktirmay Hisob-fakturasida ko'rsatilgan hajmda hisobot oyi davomida har oyda to'laydi.

2.4. Har oyda har bir hisobot oyining 30-sanasigacha Operator keyingi oyning 10-sanasidan kechiktirmay Abonent ERI orqali tasdiqlaydigan, hisobot oyida ko'rsatilgan Xizmatlar summasi uchun elektron Hisob-fakturani Abonentga yuboradi. Agar Abonent tomonidan Hisob-faktura o'z vaqtida qabul qilinmagan va 5 (besh) ish kuni ichida uni qabul qilishni asoslangan rad javobi berilmagan bo'lsa, u holda Hisob-faktura qabul qilingan va ikki Tomonlar tarafidan tasdiqlangan, Xizmatlar esa ko'rsatilgan hisoblanadi.

2.5. Ushbu Shartnoma bekor qilingan hollarda qayta hisob-kitoblar va to'lovlar masalalari